



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**ISLOMIY BANKLARNING ISHLASH TAMOIYILI VA ISLOM MOLIYA TIZIMINING
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TADBIQI**

**ПРИНЦИПЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ИСЛАМСКИХ БАНКОВ И ВНЕДРЕНИЕ
ИСЛАМСКОЙ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ В ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА**

**PRINCIPLES OF OPERATION OF ISLAMIC BANKS AND IMPLEMENTATION OF
THE ISLAMIC FINANCIAL SYSTEM IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN**

To‘raxojayev Husanxoja Hikmatxoja o‘g‘li
O‘zMU 1-kurs talabasi

Hoshimov P.Z. O‘zMU professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada islom banklarining an’anaviy banklardan farqi va ularning ahamiyati ochib berilgan. Islom moliya tizimiga ega davlatlarning tajribalari va g‘oyalari o‘rganilib, O‘zbekiston uchun muqobil modellar taklif qilingan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda Islom bank va moliya tizimining rivojlanish omillari va kelajakdagi prognozlar keltirilgan. Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekistonda islom banklariga bo‘lgan talabning oshib borish fonida, bu tizimni joriy qilishda bo‘lgan imkoniyatlar, qiyinchiliklar va istiqbollarga e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: (Ribo) sudxo‘rlilik, murobaha, lizing, mushoraka, mudaraba

В данной статье раскрывается разница между исламскими банками и традиционными банками, а также их значение. Изучаются опыт и идеи стран с исламскими финансовыми системами и предлагаются альтернативные модели для Узбекистана. Также представлены факторы развития исламской банковской и финансовой системы в Центральной Азии и прогнозы на будущее. Данная исследовательская работа посвящена возможностям, трудностям и перспективам внедрения этой системы в Узбекистане на фоне растущего спроса на исламские банки.

Ключевые слова: (Рибо) ростовщичество, мурабаха, лизинг, мушарака, мудараба

This article reveals the differences between Islamic banks and conventional banks and their importance. The experiences and ideas of countries with Islamic financial systems are studied and alternative models for Uzbekistan are proposed. Also, the factors of development of Islamic banking and financial systems in Central Asia and future forecasts are presented. This research work focuses on the opportunities, difficulties and prospects for the implementation of this system in Uzbekistan, against the background of the growing demand for Islamic banks.

Keywords: (Riba) usury, murabaha, leasing, musharaka, mudaraba

So‘nggi yillarda global moliya tizimida muqobil va barqaror moliyaviy modellar izlash jarayoni kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan, islomiy bankchalik va moliya tizimi nafaqat musulmon mamlakatlarda, balki butun dunyoda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Islomiy moliya tamoyillari adolat, shaffoflik va real iqtisodiyot bilan bog‘liqlikka asoslangani sababli, u zamonaviy iqtisodiy muammolarga samarali yechim sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarida, jumladan O‘zbekistonda, islomiy moliya tizimini joriy etish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Aholining katta qismi musulmon bo‘lgani sababli, shariatga mos moliyaviy xizmatlarga talab yuqori.

Islom banklari, islomiy moliya yoki shariatga muvofiq moliya – bu shariat (islom qonunlari) va uni islom iqtisodini rivojlantirish orqali amalda qo‘llashga mos keladigan bank yoki moliyalashtirish faoliyati, ya’ni u foiz olish, ortiqcha noaniqlik, jamiyat va insonga zarar keltiruvchi

narsalardan cheklanishga qurilgan, xavflarni (risklarni) baham ko‘radigan sherikchilikka tayangan iqtisodiy tizimdir. Islomiy bank va moliyaning ba’zi shartnomalar orasida mudaraba (foйда va zarar taqsimoti), murabaha (narx+qo‘shimcha), ijara (lizing), musharaka (qo‘shma korxona) mavjud.

1-jadval


Islomiy moliya shartnomalarining ba’zi turlari[1]

Mudaraba (hamkorlik)da faqat ikkita odam yoki ikki yuridik shaxslar orasida bo‘lishi mumkin. Mudarabaga kirishayotganlardan biri 100% kapital ta‘minlab beradi va shu bilan uni ishi yakunlanadi. Ikkinchi tomon esa o‘z ilmini, kuchini taklif qiladi. Agar ular olib borayotgan biznes foyda qiladigan bo‘lsa, avvaldan kelishilgan ulushlar orqali foyda taqsimlanadi. Aksincha, biznes bankrotga uchrasa, faqatgina birinchi tomon, kapital egasi zarar ko‘radi. Ikkinchi tomon, ko‘rilgan zarar uchun hech qanday haq to‘lashga majbur emas.	Ijara (lizing) deyarli lizing bilan bir xil bo‘lib, yagona farqi bank xizmatidan foydalanuvchi foiz to‘lashdan voqif bo‘ladi. Misol uchun, bir inson avtomobil sotib olmoqchi bo‘lsa va islomiy bankka murojaat qilsa, dastlabki ma‘lum miqdordagi to‘lovni amalga oshiradi. Keyin, bank unga avtomobil sotib olib beradi. Faqat avtomobil bankning nomida qoladi. U ma‘lum muddat davomida bu avtomobildan foydalanadi va foydalangan vaqti uchun bank bilan kelishilgan ijara pulini to‘laydi.
Murabaha (credit sale) ma‘lum miqdordagi pulni bo‘lib-bo‘lib to‘lash. Agar bir inson birona mol-mulkni sotib olmoqchi bo‘lsa-yu, yetarli puli bo‘lmasa, u inson bu vaziyatda islomiy bankka murojaat qiladi va bank bilan murobaha shartnomasi tuziladi. Shartnomaga ko‘ra, bank o‘z nomiga kerakli bo‘lgan mol-mulkni sotib oladi va foydaluvchiga o‘zining foydasini qo‘yib sotadi. U inson bu mol-mulkka to‘lovni bo‘lib to‘lashi mumkin.	Musharaka shartnomasi deyarli Mudaraba bilan bir xil. Asosiy farqi bu shartnomada ikki va undan ortiq kapital ta‘minlovchi va o‘z kuchini taklif qiluvchi tomon bo‘lishi mumkin. Musharakada ikkala tomon ham o‘z ishchi kuchini va kapitalini taklif etadi. Foyda shartnomada avvaldan belgilangan nisbatda (pre-desided) taqsimlanadi. Zarar esa barcha ishtrokchilar o‘rtasida taqsimlanadi.

Hozirgi kunda, dunyo iqtisodiy sahnasida islom banklari salmoqli ish olib bormoqda. Nafaqat shaxslarning, balki jamiyatning foydasiga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatayotgan islom banklari ko‘p jihatlardan riboviy banklardan farq qiladi. Ularning faoliyati islomiy aqidaga bog‘liqdir, ya’ni, halol va harom qoidasiga ko‘ra, islom banklari shariatda harom hisoblangan narsalarni moliyalashtirmaydi va import qilmaydi. Umuman olganda, ular o‘z resurslari va investitsiyalarini shariatda ruxsat etilgan xizmatlar va sohalarga sarflaydi. Shuningdek, bu banklar o‘z loyihalarida musulmonlar manfaatini himoya qilishga va ularga yordam berishga katta e’tibor berishadi.

Boshqa tarafdin islomiy moliya tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilinishiga bog‘langan, real bozor ichida amal qiladigan moliyadir. Shu bois, islomiy moliya muassasalari mablag‘ni ham olishda, ham berishda faqat real bozor bitimlari orqali ishlaydi, masalan savdo, ijara va sherikchilik kabi.

Qarz shartnoma asosida pul bersangiz va depozitni ham qarz asosida qabul qilsangiz, siz real bozordan ajralasiz, chunki qarz faqat pul bilan bog‘liq. Islomiy moliyada esa faqat pul bilan ish ko‘rilmaydi. Misol uchun, iste’molchiga mashina, muzlatgich yoki uy kerak bo‘lsa, ular real bozorga chiqishadi va iste’molchiga o‘sha mashinani, muzlatgichni va uyni yetkazib berishadi, nasiya sotuv, kredit yoki ijara (lizing) orqali. Bu holatda, o‘zaro bitimlar muzlatgich, mashina va uy bozorida amalga oshadi. An’anaviy moliya tizimidan farqli ravishda, islomiy moliyada “pul berib, keyin uning qanday ishlatilishi bilan qiziqmaslik” yondashuvi mavjud emas. Maqsad, bu moliya bitimlarni real tovar va xizmatlar bozorida amalga oshirishdir(1-rasm).



XX asr boshlarida, bir qator musulmon iqtisodchilari foizsiz bank tuzilmasi haqidagi nazariyani ishlab chiqishni boshlashdi. Hozirgi islomiy bankchalik asoschisi Abul A'la Maududi, 1930–40 – yillarda “Foiz o‘rniga sheriklikka asoslangan moliya” g‘oyasini ilgari surgan. 1950 – yillarda, Muhammad Uzayr islomiy bankni “Foizsiz tijorat banki” sifatida tushuntirib bergan birinchi olimlardan bo‘ldi. Ali al-Solih, Monzer Kahf va Nejatulloh Siddiqiy islomiy bankchilikka huquqiy va iqtisodiy asos yaratgan olimlar hisoblanishadi [1]. Ular ishlab chiqqan qonun-qoidalar asosida birinchi tajriba 1963 – yil Misrda, Mit Ghamr nomli bank tashkil etildi. U dunyodagi birinchi amaliy islomiy bank loyihasi hisoblanadi va lizing, mudoraba va jamg‘arma asosida ishlagan.

Ko‘plab g‘arb iqtisodchilari islomiy bankchilikni innovatsion va foydali moliyaviy tizim sifatida baholaydi. Ulardan biri, Durham Universiteti professori Rodney Vilson: “Islomiy banklar yaqin sharq va Osiyoda iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo‘shmoqda”- deb o‘z qarashlarini bildiradi. Vilson o‘zining Islamic Financial Markets asarida islomiy moliyani global moliya tizimiga muqobil model sifatida talqin qiladi. U sukut (islomiy obligatsiya), islomiy banklar va investitsiya fondlarining ishlash mexanizmini tahlil qilgan va islomiy moliya tez rivojlanayotganini tan oladi, ammo standartlashuv va likvidlik muammolari mavjudligini ta’kidlaydi[2]. Bu asardan xulosaviy fikr, islomiy moliya — bu faqat diniy emas, balki xalqaro moliyaviy instrument ekanligini tushunishimiz mumkin.

Ilmiy muvozanat uchun tanqidiy qarashlar ham zarur, bunday tanqidiy fikrlar egalaridan Misrlik Rice Universiteti (AQSH) professori Mahmoud El-Gamal islomiy moliyani keskin tanqid qiladi. Uningcha, ko‘plab islomiy moliyaviy mahsulotlar nomigagina shariatga mos, amalda esa oddiy foizli kreditni aylanma yo‘l bilan takrorlaydi. U buni “shariat arbitraji” deb ataydi. Mazmunan olganda, u moliyada shaklni emas, mohiyatni islomiy qilish kerak deb hisoblaydi[3].


MDH va Markaziy Osiyo olimlari ham islomiy banklar va moliya haqida xolisona fikrlarini bildirishgan. Bulardan, Rossiyalik iqtisodchi olim Liliya Kalimullinaning tadqiqotlariga ko‘ra, MDHda islomiy bankchalik va moliyani rivojlanishiga bu mamlakatlardagi qonunchilik bazasining yetishmasligi, soliq tizimi mos emasligi, kadrlar va shariat ekspertlari tanqisligi va aholi va banklar o‘rtasida ishonch pastligi to‘sqinlik qiladi, degan qarashlarga ega[4]. Umumlashma, MDHda islomiy moliya uchun potensial bor, infratuzilma yo‘q. Qozog‘istonlik iqtisodchilar fikricha, Markaziy Osiyo sharoitida, sukut va islomiy darchalar orqali islomiy bankchilikka bosqichma-bosqich, integratsiya orqali o‘tish eng real yo‘l deb hisoblashadi va bugungi kunda Qozog‘istonda islomiy moliya to‘liq bank sifatida emas, balki an‘anaviy banklar ichida islomiy darch (window) orqali rivojlanmoqda[5]. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ilmiy maqolalarda quyidagilarni ta’kidlaydi: “aholining islomiy moliyaga qiziqishi yuqori, biroq huquqiy baza va shariat kengashlari yetishmaydi. Shu bilan birga hozircha, islomiy moliya investitsiyalarini jalb qilish va infratuzilmalarini shakllantirish uchun imkoniyat[6].

Barcha qarashlardan xulosa qilib aytganda, islomiy moliyani qo‘llab-quvvatlovchilar uni adolatli, barqaror va real bozor bilan ishlash orqali iqtisodiy inqirozlardan ancha uzoq bolishini,

tanqidchilar esa shaklbozlik, haqiqiy risk-sharing yetishmasligini ta’kidlashadi. Barcha iqtisodchilarning fikricha, MDH va Markaziy Osiyo davlatlarida islom moliyasi rivojlanishi uchun imkoniyat katta, lekin huquqiy va institutsional muammolar mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarining ba’zilarida islomiy banklar va ularning tijoriy banklardagi darchalari mavjud. Ulardan biri Qirg‘izistonning ЗАО «ЭкоИсламикБанк» bo‘lib, u shariat tamoyillariga muvofiq ishlaydigan islomiy bank hisoblanadi, hamda НБ КР (Milliy bank) tomonidan chiqarilgan islomiy bank litsenziyasi asosida xizmat ko‘rsatadi. Qozog‘istonda esa Zaman Bank (ZAMAN BANK) islomiy bank faoliyatini olib boradigan tijorat banki sifatida tanilgan. U Shariat nazorat kengashi bilan faoliyat yuritadi va islomiy moliya tamoyillariga mos mahsulotlar (depositlar, moliyalashtirish, islomiy raqamli karta va boshqalar) taklif etadi. Tojikistonning Tawhidbank (Tawhid Bank) islomiy bank sifatida faoliyat yuritayotgan banklardan biri bo‘lib, u shariat tamoyillariga muvofiq ishlaydi. Bugungi kunda, O‘zbekistonda Asia Alliance Bank islomiy bank xizmatlarini joriy etmoqda. Markaziy bank ma’lumotiga ko‘ra, kelajakda O‘zbekistonda 10 ta to‘laqonli islomiy bank va bir necha islomiy darchalar (windows) ochilishi kutilmoqda[7]. Umumiy tahlil qilinsa, ushbu mamlakatlarda islomiy bank va moliyasiga yalpi talab mavjud va hal qilish kerak bo‘lgan masalalar ham aniq, ya’ni islomiy moliya institutlarini shakllantirish, islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani joriy qilish, va ularga qonuniy shart sharoit yaratish, hamda malakali kadrlarni tayyorlash zarur.

2-rasmda so‘ngi ma’lumotlarga ko‘ra, global islom moliyasi hisobiga kiruvchi aktivlarning umumiy qiymati 3.9 trln AQSh dollariga teng bo‘lib, quyidagi grafikda ma’lum mintaqalar necha foiz qismiga egalik qilishini ko‘rishimiz mumkin. Eng yirik qismiga GCC, ya’ni fors ko‘rfazi davlatlari 53% (\$2 trln), Uzoq sharq (Malayziya va Indoneziya) 21,9% (\$0,86 trln), MENA – fors ko‘rfazi + Shimoliy Afrika davlatlari 16,9% (\$0,66 trln), Yevropa va AQSh <5% (\$120-200 mrlld), Markaziy Osiyo davlatlari 0,01% (\$0.7 mrlld) qismiga egalik qiladi.



2-rasm. Islom moliya aktivlari hududlar kesimida taqsimlanishi [8]

O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslari belgilandi, ya’ni 2026-yil 27-mart kuni qabul qilingan qonun bilan amaldagi qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Hujjatga ko‘ra, endilikda islomiy bank faoliyatini amalga oshirishning aniq huquqiy asoslari belgilab berildi. Jumladan, banklarning islomiy moliya operatsiyalariga foydani taqsimlash asosida moliyalashtirish, investitsiyaviy omonatlar jalb qilish, nasiyaga savdo orqali moliyalashtirish, oldindan to‘lov asosida bitimlar tuzish, sherikchilik asosida faoliyat yuritish hamda mol-mulkni islomiy ijara (lizing) asosida berish kabi yo‘nalishlar kiritildi. Shuningdek, O‘zbekistonda bank faoliyatini faqat tegishli tartibda tashkil etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar amalga oshirishi mumkin. Mazkur litsenziya muddatsiz beriladi va uni boshqa shaxslarga o‘tkazish taqiqlanadi. Bu qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

Eurasian Development Bank (EDB) tahlilchilari Markaziy Osiyo bo‘ylab islomiy moliyaning rivojlanish salohiyatiga ijobiy baho bermoqda, garchi hozircha bu soha nisbatan kichik bo‘lsa ham.

2023-yil holatiga ko‘ra, mintaqadagi islomiy moliya hajmi atigi 699 million dollarni tashkil etgan. Biroq, bu ko‘rsatkich 2028-yilga borib 2 milliard dollardan oshishi va 2033-yilga kelib 6,3 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, sukut (islomiy obligatsiyalar) bozori ham sezilarli darajada o‘shib, 2028-yildagi 2 milliard dollardan 2033-yilga kelib 5,6 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda (3-rasm).



3-rasm. Markaziy Osiyoda islomiy moliya aktivlari bo‘yicha prognozlar [9]

2026-yil 25-mart kuni O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev bank tizimida islomiy moliya mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha taqdimot bilan tanishgan edi. O‘shanda Markaziy bank huzurida Islomiy moliya kengashi tashkil etilishi belgilangandi. Qayd etilishicha, mazkur yo‘nalishda murobaha, muhoraba, vakala, salam va istisno, mushoraka hamda islomiy ijara kabi moliyaviy instrumentlarni joriy qilish rejalashtirilmoqda. Ushbu mexanizmlar orqali mijozlarni turli shakllarda moliyalashtirish va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengayadi. Rejalarga ko‘ra, joriy yilda kamida bitta tijorat bankida islomiy “darcha” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. 2026–2030-yillarda esa to‘liq islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi kamida ikkita bank tashkil etish ko‘zda tutilgan. Ushbu yig‘ilishda 2026-yilda Toshkent xalqaro moliya markazi tashkil etilishi ma‘lum qilindi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilgacha markaz orqali iqtisodiyotga qo‘shimcha 20–25 milliard dollar jalb etish, yalpi ichki mahsulot o‘shishiga har yili 1 foizgacha hissa qo‘shish, 15 mingtagacha yuqori malakali ish o‘rni yaratish va 10 ming nafar mutaxassis malakasini oshirish mumkin[10]. Bundan ko‘rinib turibdiki, hozir O‘zbekistonda islomiy banklar faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun huquqiy va institutsional baza yaratilmoqda. Agar 2030 yilgacha rejalar bajarilsa, O‘zbekistonda islomiy banklar segmenti shakllanib, an’anaviy banklar ichida raqobatchi va xaridorlarga tanlov paydo bo‘ladi.

Islom moliyasi ichida banklar eng katta aktivlar ulushiga ega, ya’ni umumiy aktivlarning 70%ni tashkil qiladi. Islomiy bank va moliya sektori dunyodagi eng tez o‘sayotgan moliya tarmoqlaridan biri bo‘lib, oxirgi 5 yil ichida har yili o‘rtacha 8-12% o‘shish kuzatilgan. Bunga sukut bozori kengayishi, musulmon davlatlaridagi talab va etik investitsiyaga bo‘lgan qiziqishning oshishi sabab bo‘ldi. 2024-yilda islom banklari aktivlari 5trln\$ gacha yetgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 5.2 trln\$ dan oshdi (4-rasm).

Islomiy bankchilikni joriy qilishda Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) dunyoda eng muvaffaqiyatli tajribaga ega davlatlar hisoblanadi. Ularning yondashuvi Markaziy Osiyo uchun ham juda muhim model bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun bir necha asosiy sabablar mavjud bo‘lib, birinchidan, diniy va ijtimoiy o‘xshashlik. Markaziy Osiyo davlatlarida aholining katta qismi musulmon, lekin iqtisodiy tizim dunyoviy. Xuddi shunday holat, Malayziya – ko‘p millatli va dunyoviy davlat, BAAda esa islomiy qadriyat va global iqtisod qorishmasi mujassamlashgan. Ikkinchidan, bu ikki davlat ham “Dual banking system” (ikki tizimli model) da bank siyosatini yuritadi, ya’ni bir vaqtning o‘zida ham islomiy va an’anaviy banklar o‘z xizmatlarini ko‘rsatadi, mijoz o‘zi tanlaydi.



4-rasm. Global Islomiy banklarning aktivlari (2018-2027) [11].

Malayziya modelining tub mohiyatida kuchli qonunchilik bazasi yotadi. 1983- yili Islamic Banking Act, 2013-yilda Islamic Financial Services Act qabul qilingan va Shariat nazorati qonun bilan mustahkamlangan va har bir bankda o‘z Shariat kengashi bor. Bu tizim aholi orasida islomiy moliyaga ishonchni oshirgan. Islomiy bankchilik va moliya tizimini O‘zbekistonga joriy qilishdagi asosiy to‘siq bu kadrlar yetishmovchiligi ekanini hisobga olsak, Malayziyaning kadrlar tayyorlash va o‘qitish usulidan foydani juda katta yechim bo‘la oladi. Bunga ko‘ra, Malayziya maxsus universitetlar va ta‘lim markazlar tashkil qilish orqali, mutaxassislarni o‘zi yetishtiradi. 2005- yilda, hozirda dunyoning islomiy moliya bo‘yicha eng nufuzli markazlaridan biri INCEIF universiteti tashkil etilgan va butun dunyoga malakali kadrlarni yetkazib beradi, jumladan Markaziy Osiyoga ham[12]. O‘zbekiston bu ta‘lim tizimini oson integratsiya qilishi va natijada kadrlar yetishmovchiligini to‘ldirishi mumkin.

Birlashgan Arab Amirliklarida islom banklari juda raqobatbardosh bo‘lib, buning sababi innovatsiyaga boyligi hamda qonunchiligining moslashuvchan va investor-friendly ekanligidir. Bu davlatda “Dubai International Financial Centre (DIFC)” islomiy moliya uchun xalqaro platformasi joylashgan bo‘lib, u yerda raqamli bank xizmatlari va fintech startaplar faol rivojlanmoqda. Bu usul esa, raqamli iqtisodiyotga o‘tayotgan O‘zbekiston uchun eski tizimni “sakrab o‘tish” imkoniyatini oshiradi. Qo‘shimchasiga, BAA tajribasi shuni ko‘rsatadiki, islomiy moliya orqali katta kapital jalb qilish mumkin[13]. Tan olish kerakki, O‘zbekiston tashqi investitsiyaga muhtoj, ayniqsa Yaqin Sharqdan. Islomiy moliya yangi investitsiyalarni olib kiradi, shunday qilib bu, pul mablag‘lari, moliyaviy aktivlar yoki natural shakldagi investitsiya ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Xulosa qilsak, Malayziya yo‘li – tizimni qanday qurishni o‘rgatadi, BAA tajribasi esa uni qanday tez rivojlantirishni ko‘rsatadi. Bu ikki modelni qo‘llash O‘zbekiston iqtisodida diniy va dunyoviy muvozanatni saqlaydi, evalutsion yo‘l bilan joriy qilsa bo‘ladi, mavjud bank tizimini buzmaydi va xalqaro investitsiyalarni jalb qilinishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, islomiy bankchilik va moliya tizimi kundan-kunga rivojlanmoqda va global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Dual bank tizimini qo‘llagan mamlakatlarda islomiy va an‘anaviy banklar o‘rtasida sog‘lom raqobat va xaridorlarda tanlov imkoniyati mavjudligi, bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Tadbirkorlar va aholi uchun bu diniy e‘tiqodlariga zid bo‘lmagan holda pul olish, mamlakat uchun esa yangi sarmoyalarni jalb qilish va moliya tizimini rivojlantirish imkoniyati. Bu tizimning benuqson ishlashi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib, O‘zbekiston iqtisodiyotiga joriy qilish, nafaqat uning milliy iqtisodiyotiga, balki aholisining asosiy qismi bo‘lgan musulmon qatlamiga ham manfaatli bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Islamic_banking_and_finance?utm_source=chatgpt.com
2. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0927538X20302833?utm_source=chatgpt.com
3. El-Gamal M. A. Beyond Shari’a Arbitrage // Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. — P. 175–189.
4. Калимуллина Л. Проблемы внедрения исламских финансовых институтов в странах СНГ // Экономика и управление. — 2013. — № ... — С. ... — Раздел «Основные проблемы внедрения исламских финансовых институтов в странах СНГ».
5. https://isdbinstitute.org/product/kazakhstan-islamic-finance-country-report/?utm_source=chatgpt.com
6. https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/246?utm_source=chatgpt.com
7. https://www.spot.uz/oz/2025/10/24/islamic-finance/?utm_source=chatgpt.com
8. https://mena-fintech.org/news/global-islamic-finance-grows-14-9-reaches-us3-9-trillion-in-total-assets/?utm_source=chatgpt.com
9. https://kz.kursiv.media/en/2025-05-26/engk-yeri-kazakhstan-poised-to-lead-islamic-finance-growth-in-central-asia/?utm_source=chatgpt.com
10. <https://daryo.uz/2026/03/28/ozbekistonda-islomiy-bank-faoliyatining-huquqiy-asoslari-belgilandi/>
11. <https://www.lseg.com/en/data-analytics/islamic-finance/islamic-market-intelligence/islamic-finance-development-report-2025>
12. https://www.qoala.my/en/blog/financial-management/islamic-banking-in-malaysia/?utm_source=chatgpt.com
13. https://centralbank.ae/en/our-operations/islamic-finance/?utm_source=chatgpt.com

UDK 334.7

**BRIDGING THE INNOVATION GAP: DEVELOPMENT-FOCUSED
ENTREPRENEURSHIP SUPPORT AND INTERNATIONAL INTERMEDIARIES**

**INNOVATSIYALARDAGI TAFOVUTNI BARTARAF ETISH: RIVOJLANISHGA
YO‘NALTIRILGAN TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA XALQARO
VOSITACHILAR**

**ПРЕОДОЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗРЫВА: ПОДДЕРЖКА
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА, ОРИЕНТИРОВАННАЯ НА РАЗВИТИЕ И
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОСРЕДНИКИ.**

Tursunova Nigora Ulugbek qizi

Namangan State Technical University, Independent researcher.

Abstract

The present study examines the phenomenon of development-focused entrepreneurship support (DFES) a distinct and emerging set of organizational practices oriented toward facilitating the founding and scaling of innovative startups in developing economies, with particular emphasis on generating positive developmental impact alongside commercial viability. The paper further situates DFES within the broader entrepreneurial turn in international development a paradigmatic shift away from traditional top-down aid models toward more flexible, bottom-up, and locally responsive strategies. The analysis demonstrates that iDFESOs occupy a distinctive position within global aid chains, integrating sustainable development and social impact agendas into entrepreneurial support processes. The findings contribute to the growing literature on social entrepreneurship, development-oriented innovation, and the institutionalization of ES in emerging economies, while offering practical implications for policymakers, development agencies, and support organizations seeking to foster impactful entrepreneurship in resource-constrained environments.